

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИНГ
ТАРИХИЙ-НАЗАРИЙ ВА АМАЛИЙ
МАСАЛАЛАРИ



Республика илмий-назарий анжуман материаллари

2020 йил 6 ноябр

БУХОРО – 2020

Бухоро мусиқа фольклорининг тарихий- назарий ва амалий масалалари // Республика илмий-назарий анжумани. Бухоро: “Дурдона” нашриёти, 2018 й. – 150 бет.

Анжуманнинг дастурий қўмитаси

1. О.Х.Хамидов – университет ректори, раис
2. О.С.Қаҳҳоров – илмий ишлар ва инновациялар бўйича проректор, раис ўринбосари
3. Б.Х.Мадримов – Санъатшунослик факультети декани, аъзо
4. У.М.Миршаев – Мусиқа таълими кафедраси мудири в.в.б., аъзо
5. С.Д.Дўстов – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси п.ф.н. доцент, аъзо
6. Д.Ю.Рузиев – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси п.ф.н. доцент, аъзо
7. З.Алаева – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, котиба

Анжуманнинг ташкилий қўмитаси:

1. Ж.Т.Ярашев- Мусиқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси Р.н.д., аъзо
2. Т.И.Ражабов – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо
3. И.А.Қўшаев – Мусиқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо
4. Ф.Г.Нуруллаев – Мусиқа таълими кафедраси катта ўқитувчиси, аъзо
5. Т.Дж.Мухамедов – Мусиқа таълими кафедраси ўқитувчиси, аъзо

Масъул муҳаррир:

Б.Х.Мадримов, педагогика фанлари номзоди, профессор

Тақризчи:

Д.Ю.Рузиев, педагогика фанлари номзоди, доцент

Тўпловчи ва нашрга тайёрловчи:

Жўраев Б.Т.

O'ZBEK MUSIQA FOLKLORI VA UNING JANRLAR TARKIBI

Mirshayev U.M. – BuxDU “Musiq ta’limi” kafedrasida o’qituvchisi

Musiq folklorining qadimiy asoslari ajdodlarimizning ibtidoiy davrlardagi mehnat jarayonlari, turli tabiat hodisalariga taqliddan ijro etilgan marosim kuylari va aytimlariga, ular bilan bog‘liq o‘yin va harakatlariga borib taqaladi. Shu bois musiq san’atining eng qadimiy namunalari tashqi olamdan olgan ta’sirchanlik taassurotlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan va inson tafakkuri orqali yaxlit badiiy obraz yaratiladigan san’at turiga aylangan. Musiq folklorida xalqning hayoti, tarixi, kurashi, falsafasi, dunyoqarashi, turli hodisalarga bo‘lgan munosabatlari, insoniy fazilatlarini o‘z aksini topgan.

O‘zining qadimiy va boy milliy madaniyati bilan jahon sivilizatsiyasiga ulkan hissa qo‘shgan ajdodlarimizning xilma-xil cholg‘u va aytim-qo‘shiq yo‘llaridan iborat boy musiq folklorini yaratishgan. Asrlar davomida ezgulikni tarannum etib kelgan bu tafakkur durdonalarida xalqimizning eng oliyjanob, ulug‘vor maqsadlarga yo‘naltirilgan qarashlari qo‘shiq va kuylari orqali ifodalangan. Binobarin, badiiy salohiyati g‘oyat yuksak bo‘lgan ajdodlarimiz badiiy va musiqiy-poetik iqtidorini o‘zida mujassamlashtirilgan musiq folklori an’analari asrlar davomida bitmas-tuganmas ruhiy quvvat manbai bo‘lib xizmat qilgan. Shu bois musiq folklori bunyodkorlik va yaratuvchilik g‘oyalaridan kuch olib taraqqiy etgan xalqimizga juda katta ma’naviy oziqa beruvchi qadriyatlar tizimi bo‘lib kelgan.

Musiq folklorining asosiy xususiyati ijodiy jarayon – yaratuvchilik (ijodkorlik) va ijrochilik jarayonining og‘zakiyligi va u ommaning ishtiroki bilan belgilanadi. Uning oddiylik-soddalik, an’anaviylik, o‘zgaruvchanlik, lokallik, variantlik, funkcionallik, badihago‘ylik, ommaviylik, anonimlik, sinkretik kabi ko‘pdan-ko‘p belgilari musiq folkloriga xos ijodiy jarayonning ana shu bosh xususiyati doirasida namoyon bo‘ladi. U o‘ziga xos ijtimoiy mohiyati va badiiy taziligiga egadir. O‘zbek musiq folklori xalqning madaniy merosi, uning ma’naviy dunyosi bo‘lib, o‘zgacha mavqei, janrlar tarkibi, ichki qonuniyatlari va ijrochilik uslublari bilan ajralib turadi.

Janr (franstuzcha - jins, tur, xil so‘zidan) – badiiy san’at turlarida tarixan shakllangan ichki bo‘linishi hamda mazkur jarayonni ifodalovchi tushuncha; shakl va mazmun birligidagi xususiyatlariga ega bo‘lgan musiq asarining alohida turi, asarlar majmuasi. Umuman badiiy asarlar orasidagi farqni nazarda tutish demakdir.

Musiq folklorining janrlar tarkibi ma’lum mezonlarga tayanib (tanlangan mavzu, badiiy-estetik va badiiy-g‘oyaviy mazmun, shakl jihatlari, funkcionallik va ijrochilik yo‘nalishlari) amalga oshiriladi. Shu bilan har bir san’at turida janr tasnifi o‘ziga xos tizimni tashkil etadi. Musiq janri – o‘zaro aniq musiq (cholg‘u yoki aytim) bilan bog‘langan bir shakl va turdagi bo‘linmas asarlar tizimi. Ushbu tizim tarixan joriy bo‘lgan nisbatan barqaror toifalar, musiq asarlarining turg‘un turi, tuzilishi va ko‘rinishlari bo‘lib, mezonlar qatori bo‘yicha shartlangan va ular quyidagicha: aniq hayotga atalgan (ijtimoiy, madaniy, maishiy, badiiy vazifasi); ijro vositasi va sharoiti bilan bog‘liq; uning mazmun-mohiyati, xarakteri va mujassamlashtirish shakli. Musiq folklorining janrlari an’anaviy madaniyat va hayot bilan bog‘liq chinakkam asosiy aloqalaridan biridir.

Folklor janrlari avvalo musiqa va hayotning real munosabatlari asosida yuzaga kelgan hamda turli musiqali ifoda vositalarini o'zida aks ettirgan badiiy fenomen hisoblanadi. U musiqali amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, musiqa folklorining janrlar harakatida uchta tarixiy shakllari ajralib turadi: sinkretik, estetik va virtual. Janrlarning tasnifiy tizimi o'zining murakkabligiga ega bo'lib, u qadimdan mavjud bo'lgan. O'zbek musiqa folklori o'zining mavzuli, funkcionallik va ijrochilik xususiyatlariga binoan ikkita yirik guruhga bo'linadi – amaliy (shartlangan) va noamaliy (shartlanmagan). Har biri cholg'u va aytim-qo'shiq yo'llaridan iborat. Cholg'u yo'llariga yakkasoz va ansambl ijrochiligidagi cholg'u chaqiriqlar, usullar, ohanglar, kuylar va turkumlar kiradi. Ovoz va so'z orqali ifodalangan aytim-qo'shiq yo'llari xalq qo'shiqlari, aytimlari va turkumlaridan iborat.

Amaliy guruhga ma'lum vaziyat (turmush tarzi, mehnat, marosim, yil fasllari, tabiat, taqvim) bilan bog'liq va ma'lum vaqtda ijro etilgan cholg'u va aytim-qo'shiq yo'llari, jumladan, alla, mehnat, marosim, tarixiy qo'shiqlar; marosim, cho'poncha, harbiy, o'ynoqi (raqsbop) cholg'u ohanglari va kuylari kiradi (qarang ilova, jadval № 3). Ular o'z navbatida ma'lum turlari (masalan, mehnat – dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik qo'shiqlari; marosim – mavsumiy, oilaviy-maishiy va diniy-ibodat qo'shiq-aytimlari) va ichida janrlarga (masalan, “Alla”, “Mayda”, “Yor-yor”, “Muborak”, “Yig'i-yo'qlov”, “Marsiya”, “Badiq”, “Azon” va b.) bo'linadi.

Noamaliy guruhga ma'lum vaziyatlar bilan bog'liq bo'lmagan, hamma joyda ijro etiladigan va ma'lum vaqtini chegarasi yo'q cholg'u va qo'shiq yo'llari kiradi (qarang ilova, jadval № 4). Bular lirik (tabiat, ishqiy mavzuli), hajviy qo'shiqlari va dastursiz cholg'u yo'llari hamda mahsus, turli mavzuli qo'shiqchilik janrlari bo'lmish terma, qo'shiq, lapar, o'lan, yalla va ashuladir. Terma eng oddiy, kalta kuyli qo'shiq janri bo'lsa, ashula – keng diapazonli rivojlangan kuyi va shakli bilan ajralib turadi.

Folklorning cholg'u va aytim yo'llari asosiy yo'nalishlari bo'lib, ular o'z san'ati namunalari bo'lishi bilan birga muayyan bir ijtimoiy-maishiy funksiyani ham ado etadilar. Masalan, halq qo'shiqlari mehnat jarayonlariga aloqador bo'lsa, “Yor-yor”, “O'lan”, “Muborak”, “Kelin salom”, “Yig'i-yo'qlov”lar to'y va aza-motam marosimlari bilan bog'liqdir. Musiqa folklori janrlari nafaqat g'oyaviy-badiiy xususiyatlari bilan, balki ijro usullari (yakka ijrochilik, guruh yoki jamoaviy ijrochilik, cholg'u jo'rligida yoki jo'rsiz, yakkasoz va ansambl ijrochiligi kabi) jihatidan ham bir-biridan farq qiladilar. Folklor janrlari qanchalik xilma-xil, ba'zan funkcionallashgan va qat'iy vazifador bo'lishiga qaramay, ular yaxlit badiiy tizimni tashkil etadi.

Musiqa folklori janrlari ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma'naviy taraqqiyot bilan uzviy bog'liq. Shu sababli xalq hayotidagi tarixiy o'zgarishlarga ko'ra, ular ham o'zgarib borgan. Rivojlanish jarayonida qaysi bir janr yoki namunalar ijrochilar repertuaridan tushib qolgan yoki butunlay yo'qolgan bo'lsa, uning yangi namunalari yaratilib kelingan. Shuning uchun ham ma'lum asrlarda yozib olingan folklor namunalarida ko'p qatlamlilik mavjud bo'lib, uzoq ijro davomida ularda bir necha davrlar o'z izini qoldirgan. Musiqa folklori janrlarining stadial taraqqiyoti va tarixiy-tipologik nuqtai nazardan qaraganda, eng qadimgi davrlardan boshlab ko'pchilik xalqlarda og'zaki poetik namunalari (miflar, afsona, rivoyatlar), mavsumiy marosim folklori namunalari, mehnat qo'shiqlari va aytimlari keng tarqalgan.

Adabiyotlar

1. Abdullayev R. O'zbek mumtoz musiqa. Toshkent, 2008.
2. Abdullayev R. Boysun. An'anaviy musiqa madaniyati. Toshkent, 2006.
3. Абдуллаев Р.С., Кароматли Ф.М. Музыкальная культура.// Узбеки. М.,2011, 598-628 стр.
4. Абдуллаев Р. Узбекская традиционная музыка как часть современности. // Узбекская музыка на стыке столетий (XX-XXI вв.): тенденции, проблемы. Ташкент, 2008, 9-38 стр.
5. Karomatov F. O'zbek xalqi musiqa merosi. XX asr. 1-2 kitob. Toshkent, 1978, 1983.
6. O'zbek musiqa tarixi. Toshkent, 1983.
7. Назайкинский Э.В. Стиль и жанр в музыке. М., 2003, 25 б.

O'ZBEK MUSIQA FOLKLORI

Mirshayeva D.A. –Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi katta o'qituvchisi.

O'zbek folklorining qadimgi namunalari asl holida to'la ravishda bizgacha yetib kelmagan. Hozircha qadimiy deb taxmin qilingan "Sust xotin", "Choy momo", "Ramazon" yoki "Boychachak" qo'shiqlari, terma kabi janrlari ma'lum davrlarda xalq dunyoqarashi ruhida qayta ishlangan. Zero, musiqa folklori ayrim asarlari, ba'zi janrlarining keyingi taraqqiyoti va holatini muayyan davrlar bilan bog'lab, ularning qadimiy ko'rinishlari avloddan-avlodga yetkazib kelgan bir necha avlod xalq ijrochilari saqlab, sayqal berib kelgan.

Qadimgi turkiy xalqlariga oid qo'shiq va termalarning namunalari Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida saqlanib qolgan. Devonda keltirilgan xalq qo'shiqlaridan parchalar (asosan to'rtliklar shaklida) ham ilmiy, ham amaliy, ham ta'limli ahamiyat kasb etadi. Qo'shiq atamasi keng ma'noli tushuncha bo'lib, turkiy xalqlarda avvallari "qo'shiq" iborasi she'riy janr sifatida talqin qilinarkan. Keyinchalik esa "qo'shmoq" fe'li bilan she'r va kuy uyg'unlashuvi, qo'shilishi natijasida paydo bo'ladigan san'at asari deb ta'riflangan. Devondagi namunalarni ovchilik, chorvachilik, mavsumiy va to'y marosimlari hamda qahramonlik qo'shiqlari tashkil etadi.

Ma'lumki, dastlabki xalq qo'shiqlari estetik zavq berish maqsadida emas, balki tabiatga ta'sir ko'rsatish uchun yaratilgan va ilk bor jo'rsiz yoki urma cholg'u (doirasimon) hamda zarbli narsa (tayoqcha, tosh va b.)lar jo'rligida aytilgan. Chunki ibtidoiy tushunchaga ko'ra, hayotning go'zalligi, kasal bo'lmaslik, hosildorlik, yaxshi ov, oilaviy turmush va xo'jalikda muvaffaqiyat, tabiat hodisalari (yil fasllari, suv toshqini, er zilzilasi)ga ma'lum ta'sir ko'rsatishdan kelib chiqqan. Bunday qo'shiqlar o'zining tarixiy taraqqiyoti jarayonida o'zgarib, mavjud ibtidoiy tushunchalar o'rnini yangi, haqiqiy hayot tushunchalari egallagan. Shu bois ko'p qo'shiqlarda xalqning hayot tajribalari bilan bog'liq bo'lgan ruhiy kechinmalari o'z ifodasini olgan.

Musiqa folklorida keng tarqalgan amaliy janrlardan "Yor-yor" yoki "Kelin salom" qo'shiqlarini qiyosiy solishtirsak, har biri to'y marosimida ayollar ijrosida aytilishini kuzatishimiz mumkin. Biroq ular ijro etilish uslubi va joyi, mazmuni va shakli bilan bir-biridan birmuncha farqlanadi. "Yor-yor" - kelinning ota

МУНДАРИЖА

ХАМИДОВ О.Х. Бухоро мусиқа фольклори – азалий ва абадий қадриятлар сарчашмаси	3
І ШЎБА	
БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ БОРАСИДАГИ ЁНДАШУВЛАРДА МУАММО ВА ЕЧИМЛАР	
МАДРИМОВ Б.Ў қувчиларга эстетик тарбия беришда ўзбек мусиқа фольклорининг аҳамияти	4
АВЕЗОВ Р. Мавриги рақсларининг анъанавий ижроси	7
РЎЗИЕВ Д.Й. Фольклор кўшиқларининг ўзига хос хусусиятлари	11
ҲАСАНОВ Ҳ.Р. Халқ оғзаки ижодида – сўз санъатининг ўрни	14
XIDIROV A. Buxoro qadimgi saroy maktabida folklor uslublari tarixi	18
SAIDIY S.B Darvish Ali Changiy ta’limoti va zamondoshlari	20
ISMOILOVA M.E Buxoro “Buxorcha”si xususida	22
NOROVA SH.U. Musiqa madaniyati darslarida o’quvchilarni xalq musiqasiga bo’lgan qiziqishlarini shakllantirish metodlari	25
НУРУЛЛАЕВ Б.Г. Бухоро фольклор кўшиқлари халқнинг ижодий маъсули сифатида	27
АЛЛАЕВА З. Ўзбек мусиқа ижрочилигида болалар фольклорининг аҳамияти	30
НУРМАТОВА М.А., РАХИМОВ А.Э. Фольклорная музыка и изустно-профессиональное творчество	33
АЛЛАЯРОВА Н. Н. Оилада болаларни халқ оғзаки ижоди намуналари асосида тарбиялаш методи	35
MUXAMEDOV.T.DJ. Xalq ogzaki ijodi bo’lgan folklor va uning xususiyatlari	38
SAMIYEV M. Buxoro musiqa folklorini tadqiq etish tarixidan	41
SHAMSIYEV S.I Folklor qo’shiqlarining lokal (maxalliy) ijro uslublari	43
ЮСУПОВ Д. Фольклор ва кўфирчоқ театри	45
MURODOV M.B O’zbek folklorining janrlari xususida	48
ODILOV A.I. O’zbek musiqa folklori haqida	50
РАЖАБОВ Т. Болалар фольклор кўшиқларини ўрганиш жараёнини такомиллаштириш юзасидан тажрибалар моҳияти	52
RAHMATULLAEVA G Bolalar folklor qo’shiqlarini o’rganishda milliy musiqiy ta’limning o’rni va ahamiyati	56
SAMIYEV M Buxoro musiqa folklorining tarixiy-nazariy va amaliy masalalari	58
БОЛИЕВ У., ТОШПУЛАТОВ М. Ўзбекистонда фольклоршунослик тараққиёти	61
БАЛТАЕВ У. Танбур чолғуси ва ижорчилиги	63
САФАРОВА Н.О., ФАРҲОДОВА Н.А. Латифа жанри ҳақида	66
КАРИМОВ О.И. Алишер навоий ижодида халқ оғзаки ижоди	68

II ШЎБА	
ОЛИЙ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА БУХОРО МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИНИ ТАРИХИЙ- НАЗАРИЙ ЎРГАНИЛИШИ	
САФРАЛИЕВ Б.С. К истории организации ремесленных цехов созанда в структуре социально-культурной жизни населения	70
ОМАНҚУЛОВА. Ш. Н, АБДУМАННАТОВА А.А. Бўлажак мусиқа таълими ўқитувчиларини модулли ўқитиш технологиялари асосида касбий компетентлигини такомиллаштиришнинг таркибий қисмлари	75
МАТЎАКУБОВ Е., МАТЎАКУБОВА У., Xorazm surnay lazgi ijrochiligi	78
XODJAYEV J. O'quvchi yoshlar ma'naviy dunyosini shakllantirishda musiqaning ahamiyati	80
YAKUBOV Z., MUHAMMATOVA O. Talabalarni xor dirijorligi faoliyatiga tayyorlash orqali kasbiy kompetentligini takomillashtirish.	82
РАЖАБОВ А. Мусиқа таълими йўналишида "Бухоро мусиқа фольклорини" ўрганилиши	86
III ШЎБА	
МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ БОРАСИДА ЗАМОНАВИЙ ТАДҚИҚОТЛАР	
РАХИМОВ Б. Лазгининг иккинчи умри	90
НУРУЛЛАЕВ Ф.Г., Мусиқа таълимида Бухоро фольклор қўшиқларини ўргатиш жараёнини лойиҳалаш	92
КАРИМОВ З. А, ШОДИЕВА О.А. Бошланғич синф мусиқа дарсларида болалар фольклор қўшиқларини ўргатиш услублари	96
ЖОВЛИЕВ Ж Мақсуд Шайхзода – фольклоршунос	99
ШЕРИММАТОВ Ж.Ш. АЛЛАЯРОВА Н.Н. Ўзбек мақомлари замонавий композиторлар ижодида	103
BOLTAEV B. R., Mehribonlik uylari musiqa tugaraklari jarayonida samarqand dostonchlik maktablari bilan tanishtirsh	107
БАЛТАЕВА Г.И. Хоразм рақс санъати.	109
Болтаев Р.К Мақомларни назарий ва амалий ўрганиш хусусида	113
УМУРОВА М.Ё. Умумий ўрта таълим мактабларида болалар фолклор қўшиқларини ўрганишнинг умумий манзараси	117
ИСМАИЛОВА Г. Ўзбекистонда фолклор санъатини ўзига хос ўрни, олий таълим тизимида фолклор мусиқаси ривож	120
IV ШЎБА	
САНЪАТ ВА МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ	
ПОГОРЕЛОВА Н.В., ТЕЛЬНИКОВ И. Формирование социокультурной компетентности студентов в условиях профессиональной социально-культурной деятельности	122
ЮЛДАШЕВА М.Б, Особенности арт-рынка как социально-культурного	

явления	128
МУСТАФОВ Ш.Н. “Беш муҳим ташаббус” доирасида санъат педагогикасидан фойдаланишнинг педагогик-психологик имкониятлари.	131
МУСТАФОВ Б. Ўқувчи – ёшлар мусика маданиятини тарбиялашда ислохотларнинг аҳамияти	134
БОГДАН С.В. Социокультурный капитал как объект маркетинговой деятельности	136
ШВАЙГЕРТ Р.А. Этнокультурный центр как механизм сохранения национальных традиций	142
НАМРОҚУЛОВ Н.В. Boshlang'ich sinf musiqa darslarida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatish muammo sifatida	145
БОГДАН С.В. Социокультурный капитал как объект маркетинговой деятельности	146
ЩЕЛКАНОВА М.А. Технологии продюсирования культурно-образовательных услуг	152
СПИЦЫНА А.А. Потенциал некоммерческих организаций в культурном развитии общества	156
АРХИПОВА И.А. Формирование зрительской культуры старшеклассников в условиях творческого объединения	159
САВЕНКО С.В. Знак в контексте культуры делового общения	163
КОСТИНА А.С. Народная танцевальная культура основа эстрадной хореографии (на примере творчества Тамараханум)	165
QURBONOV Q. Y. Yoshlar tarbiyasida musiqa san'atining o'rni	167
МАЇТОВ Ш. XVI-XIX asrlar musiqachi-shoirlarida moziy sadolarining taralishi	170
SAYIDOV B.Q. Mumtoz ashula ijrochiligida yo'l qo'yilayotgan vazn muammolari	172
V ШЎБА ЎЗБЕК МУСИҚА ФОЛЬКЛОРИ ЭСТЕТИК ТАРБИЯ ВОСИТАСИ	
ДЎСТОВ С. Халқ кўшиқларининг тарбиявий аҳамияти.	175
РАХИМОВ Н.Н., ЮЛЯХШИЕВ Ш.Н. Маънавий-маърифий ва мусиқий тадбирларнинг талабалар эстетик тарбиясидаги ўрни	179
АЗИЗОВ Р., РАШИДОВА Н. Музыкально – эстетическое воспитания школьников на уроках музыки в школе	182
СОХИБОВ А.И. Мусиқа дарслари эстетик тарбия воситаси	184
ТЎРАЕВ Қ.Ф. Ўзбек мусиқа фольклори воситасида ўқувчиларни эстетик тарбиялашнинг шакл, восита ва усуллари	186
SAMATOVA D.S., NAMRAYEVA U.SH. O'zbek xalq musiqalari orqali o'quvchilarning musiqiy-estetik didini shakllantirish.	188
XODJIYEVA D.R. O'zbek musiqa folklori estetik tarbiya vositasi	190
SALIMOVA SH.I. O'zbek musiqa folklori estetik tarbiya vositasi	193
NURULLAYEVA N.K. O'quvchilarga estetik ta'lim-tarbiya berishda	

fol`klor qo`shiqlarining o`rni.	195
ОРТИҚОВ О. Жади́д маърифатпарварларининг санъат ва мусиқага оид қарашлари	199
RAHIMOV A.R., Musiqa madaniyati darslarida o'quvchilarning qo'shiq kuylash malakalarini shakllantirish	202
ГУЛБОЕВ. А.Т Ўзбек миллий мусиқаси орқали шахсда миллий характерни, миллий ўзликни англаш тарбия манбаи.	205
MUXAMEDOV T. Folklor va uning o'ziga xos xususiyatlari	207
MIRSHAYEV U.M. O'zbek musiqa folklori va uning janrlar tarkibi	211
MIRSHAYEVA D.A. O'zbek musiqa folklori	213
ҚУРБОНОВА Ў.У.Миллий халқ маросим қўшиқлари - тарбия манбаи сифатида	215